

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH JARAYONINI
TASHKIL ETISH****Buriyeva Hilola***Shahrisabz davlat pedagogika insitituti Maktabgacha talim yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik muammolari va uni yosh bosqichlaridagi ahamiyati shuningdek, undan foydalanishni shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, yosh bosqichlari, pedagogik texnologiya, aqliy rivojlanish, jismoniy rivojlanish, nutq o'stirish, pedagogik-psixologik*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогикопсихологические проблемы роста и развития речи детей в дошкольных образовательных организациях и ее значение на младших этапах, а также формирование ее использования. Ключивые слова: образование, воспитание, возрастные этапы, педагогическая технология, психическое развитие, физическое развитие, речевое развитие, педагогико-психологическая/*

Annotation: *In this article, the pedagogical and psychological problems of growing and developing children's speech in preschool educational organizations and its importance at young stages, as well as the formation of its use, are discussed.*

Key words: *education, upbringing, age stages, pedagogical technology, mental development, physical development, speech development, pedagogical-psychological.*

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini rivojlantirishga oid ko'plab talablar qo'yilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o'zlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Qayd etish lozimki, bir xil yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi birbiridan mutlaqo farq qilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bulgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayerlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayerlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Shularni hisobga olib, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sonli qarori hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu qonun hujjatlarida Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining

muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizni olib borayotgan mazkur siyosati maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglardan g'oyat katta ma'suliyat hamda o'qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so'z boyligi oshishi ravon gapirishi va o'z fikrini to'lik ifoda etib, aytib bera olishga o'rgatish masalaning dolzarbligini ko'rsatib beradi. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni usulika bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni o'stirish va rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala, ushbu holat shiddat bilan, sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir. Olimlar bolalarni o'qitishni ularning yuqori darajadagi aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini ta'minlash, til qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradigan darajada optimal tashkil etish yo'llarini topish borasida faol ish olib bormoqdalar.

Nutqni o'qitishning nazariy va empirik muammolarini tadqiq etish quyidagi nazariy qoidalardan kelib chiquvchi umumiy boshlang'ich pozitsiyalarga ega: - ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda, ayniqsa zamonaviy noqulay nutqiy muhit sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega; - nutqni o'rgatish – "...dan to ...gacha" kabi qattiq qo'liqlar to'g'ri kelmaydigan hamda nutqni rivojlantirishning yosh qonuniyatlari va bolaning individual xususiyatlari bilan belgilanadigan ijodiy jarayondir; - nutqni rivojlantirishning asosida kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak, xususan: ona tilini o'zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga qo'shilishi, o'quv sharoiti tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim; - o'qitish vaziyatida katta yoshli odamning bola bilan o'zaro hamkorligining xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo'lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim; -til ustida nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida hamda uning barcha komponentlarini: undov- motivatsiya, yo'naltirish-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur; -nutqni o'qitish bolalarning tilni o'rganish bo'yicha mustaqil faoliyatiga asoslanishi va bolalar faolligining boshqa turlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni o'stirish muammosini ishlab chiqish mazkur metodologik holatlardan kelib chiqqan holda olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: -nutqni o'stirish va rivojlantirish – bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayonidir; -nutqni o'stirish va rivojlantirish – bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, lekin u stixiyali jarayon emas; -bola nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lim tashkilotdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga

chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi: jismoniy; shaxsiy (ruhiy); aqliy; maxsus tayyorgarlik. Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'zini-o'zi nazorat qilishi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o'z ichiga oladi. Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy-mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til malakasining rivojlanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya'ni uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dasturi materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik – maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga qo'yiladigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi ijtimoiy- psixologik o'rni bilan bog'liq. Bola o'z oldiga qo'yiladigan vazifalarni bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim. Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat tizimining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq, endi ta'lim majburiy bo'ladi va birinchi sinf o'quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi. Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o'zgaradi, erkin o'yinlar vaqti qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomlilikka talablar jiddiy ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o'quvchining o'z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy ma'suliyati ancha-muncha ortadi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy

psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntaeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: «Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida ko'rib chiqiladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik MTT ning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim- tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini to'zatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «...Tilni egallash jarayoni - bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy). Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqita'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, "o'z-o'zidan harakatga kelishi" bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi. "Antonim so'zlar" o'yini Bu o'yin katta va tayyorlov guruhlarida o'tkazilishi mumkin. O'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga samarai yordam beradi degan umiddamiz. O'yin induvidual, guruh bilan ham o'tkazilsa ham bo'ladi. O'yin sharti qo'yidagicha: Tarbiyachi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qarama-qarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta-kichik, issiq-sovuq, qattiqyumshoq, uzoq-yaqin va xokazolar. Odatda bollar o'yin boshida bir oz qiynaladilar, aytilgan so'zga javoban, antonim emas sinonim so'zlar bilan javob beradilar. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng abstrakt tushunchalarni ham osonlik ilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga xarakat qiladilar. Masalan: chaqqoonyalqov, ishchan-dangasa, odobliodobsiz va xokazolar. "Avval nima bo'lgan edi" o'yini Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan: jo'ja-tuxum, ot - toychoq, kapalak - qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug'doy, uy - g'isht - loy, stol - yog'och - daraxt - urug', ko'ylak - mato - ip - paxta - chigit tarzida o'yin davom etaveradi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o'z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Boshlang'ich ta'limda ona tili bolalarda mantiqiy fikrlash, lug'at boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya'ni to'g'ri o'qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so'z yasalishi va gramatikaga oid bilimlarni o'rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Низомова, Шохиста Шодиевна. "СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИНИНГ АДАБИЙ-ИРФОНИЙ АСОСЛАРИ." Scientific Impulse 1.4 (2022): 1391-1395.
2. Nizomova, Shoxista. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).
3. Nizomova, Sh Sh. "Symbolic-Emblematic Expression of Water Bodies and Structures in Modern Poetry." AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT 1.2 (2022): 126-128.
4. Низомова, Ш. Ш. (2022). СУВ ВА ОЛОВГА МАРОСИМИЙ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТДАГИ ТАЛҚИНИ. Involta Scientific Journal, 1(3), 191-199.
5. Низомова Ш. Ш. ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТДА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИН ХУСУСИЯТЛАРИ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1396-1400. Международный научный журнал № 2(100), часть 1 «Научный Фокус» июня, 2023 1191
6. Shodiyevna, Nizomova Shoxista. "The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2.2 (2022): 170-174.
7. Nizomova, Shoxista. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA BADIY ADABIYOT BILAN ISHLASHNI ORGATISH." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).
8. Nizomova, Shoxista. "МАКТАБГАЧА TALIM TASHKILOTIDA O'YINNING VOLA HAYOTIDAGI ANAMIYATI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).
9. Низомова, Шохиста Шодиевна. "ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ." Проблемы науки 6 (65) (2021): 79-81.
10. Ниёзова, Гулбахор Давроновна. "Цели И Задачи Музыкального Образования В Дошкольном Образовании." Проблемы педагогики 6 (51) (2020).
11. Ниязова, Гулбахор Давроновна. "Воспитание нравственности у детей дошкольного возраста." Проблемы педагогики 3 (48) (2020): 19-21.
12. Ниязова Г. Д., Ниязова С. Д. Психолого-Педагогическая Готовность Детей К Обучению В Школе //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1048- 1055.
13. Ниязова С. Д., Ниязова Г. Д. Формирование Отдельных Способов Познавательной Деятельности У Детей Дошкольного Возраста На Занятиях «Ознакомление С Природой» //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1093-1101.
14. Ниязова Г. Д. Интеграция Уроков-Важная Условия Реализации Познавательных Потребностей Младших Школьников //Boshqaruv Va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnal. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 60-66.